

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

(2020- yil yanvar-dekabr oylari uchun, dastlabki ma'lumotlar)

Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra **1923,8** ming kishini tashkil etib, 2020- yil boshidan **25,5** ming kishiga yoki **1,3** % ga ko‘paydi. Jumladan shahar aholisi soni **942,1** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **49,0** %), qishloq aholisi soni **981,7** ming kishi (**51,0** %)ni tashkil etdi.



Shahar joylarda
942,1 ming kishi




Doimiy aholi soni
1923,8 ming kishi




Qishloq joylarda
981,7 ming kishi

Shahar va qishloq aholisining jami aholi sonidagi ulushi, % da



■ qishloq ■ shahar

Erkaklar va ayollar sonining jami aholi sonidagi ulushi, % da




■ erkaklar ■ ayollar



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

Doimiy aholi sonining tuman (shahar) lar bo‘yicha taqsimlanishi (1-yanvar holatiga ko‘ra, ming kishi)





QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha asosiy demografik ko‘rsatkichlar (yanvar-dekabr oylari uchun, ming kishi)

	2019- yil	2020- yil
Doimiy aholi soni	1898,3	1923,8
Tug‘ilganlar	41,1	39,3
Vafot etganlar	8,5	9,2
Aholining tabiiy o‘sishi	32,7	30,1
Kelganlar	10,0	7,8
Ketganlar	14,1	12,5
Migratsiya saldosi	4,1	4,7
Tuzilgan nikohlar, birlik	14 259	11 566
Nikohdan ajralishlar, birlik	1 243	1 028

1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille

tug‘ilish	21,8	20,6
o‘lim	4,5	4,8
aholining tabiiy o‘sishi	17,3	15,8
tuzilgan nikohlar	7,6	6,1
nikohdan ajralishlar	0,7	0,5

Tug‘ilish. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **39,3** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (*bu yerda va keyinchalik tirik tug‘ilganlar inobatga olinadi*), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **20,6** promilleni tashkil etdi hamda 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 21,8 promille bo‘lgan).




QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tuman (shahar)lar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2020- yil yanvar-dekabr)




Vafot etganlar. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **9,2** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti **4,8** promilleni tashkil etdi hamda 2019-yilning mos davriga nisbatan **0,3** promillega o‘sganligi (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,5 promille bo‘lgan) kuzatildi



Vafot etganlar soni,
kishi



O‘lim koeffitsiyenti,
1000 aholiga nisbatan,
promille



Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(2020-yil yanvar-dekabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)



2020-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 58,7 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,9 %i - o‘simtalardan, 5,3 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,9 %i - ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 7,1 %i - nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 3,5 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 12,6 %i – boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Ro‘yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,5 ming nafarni tashkil etib, ularning 75,1 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 12,6 %i - nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 4,2 %i - tug‘ma anomaliyalardan, 1,3 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan va 6,8 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Tabiiy o‘sinh. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o‘shishi 30,1 ming kishini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 2,6 ming kishiga (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 32,7 ming kishi bo‘lgan) kamaygan.


Tabiiy o‘sinh — 30,1 ming kishi



Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha nikohlar soni (yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)




Tumanlar kesimida nikoh tuzganlik koeffitsiyenti (2020- yil yanvar-dekabr oylari uchun, 1000 aholiga nisbatan)




Tumanlar bo‘yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida eng yuqori nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) **Amudaryo** (7,1), **Beruniy** (7,1), **Ellikqal'a** (6,9) va **Nukus** (6,7) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar bo‘yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) **Taxiatosh** (4,5), **Qo‘ng‘irot** (4,8), **Shumanay** (5,1), va **Xo‘jayli** (5,2) tumanlarida kuzatildi.






Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha nikohdan ajrashganlar soni to‘g‘risida ma‘lumot (yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)




Tumanlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (2020- yil yanvar-dekabr oylari uchun, 1000 aholiga nisbatan)



Tumanlar bo‘yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida eng yuqori nikohdan ajralish koeffitsiyenti (promille) **Taxiatosh** (0,8), **Nukus shahri** (0,7), **Qonliko‘l** (0,7) va **Qo‘ng‘irot** (0,6) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar bo‘yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida eng kam nikohdan ajralish koeffitsiyenti (promille) **Mo‘ynoq** (0,3), **Amudaryo** (0,4), **Qorao‘zak** (0,4) va **To‘rtko‘l** (0,4) tumanlarida kuzatildi.





Aholi migratsiyasi



	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr
 Ko'chib kelganlar soni, kishi	10 003	7 779
 Ko'chib ketganlar soni, kishi	14 110	12 457
 Migratsiya saldosı, kishi	-4 107	-4 678

Migratsiya. 2020- yil yanvar-dekabr oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 7779 kishini tashkil etdi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida respublika bo'yicha ko'chib ketganlar soni 12457 kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldosı. 2020- yil yanvar-dekabr oylarida migratsiya saldosı minus 4678 kishi bo'lib, 2019- yilning mos davrida minus 4107 kishi bo'lgan.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

Tuman (shahar)lar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni
(2020- yil yanvar-dekabr uchun, kishi)


	Ko'chib kelganlar soni	Ko'chib ketganlar soni	Migratsiya saldosi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 779	12 457	-4 678
Nukus shahri	2 259	2 283	-24
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	255	1 768	-1 513
Beruniy	203	622	-419
Bo'zatov	88	171	-83
Qorao'zak	268	550	-282
Kegeyli	353	727	-374
Qo'ng'iro't	395	672	-277
Qonliko'l	320	467	-147
Mo'ynoq	201	175	26
Nukus	741	633	108
Taxiatosh	382	399	-17
Taxtako'pir	168	319	-151
To'rtko'l	452	655	-203
Xo'jayli	616	843	-227
Chimboy	486	971	-485
Shumanay	282	494	-212
Ellikqal'a	310	708	-398



Poytaxtdagi demografik holat



Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- yanvar holatiga **324,0** ming kishini tashkil etib, 2020- yil boshidan **4,4** ming kishiga yoki **1,4** % ga o‘sgan.



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida Nukus shahrida **6070** bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 1000 aholiga nisbatan **18,9** promilleni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan **0,6** promillega (2019- yilning mos davrida **18,3** promille bo‘lgan) o‘tdi.



Nukus shahrida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar




Nikoh. FHDYO organlarida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **1761** ta nikohlar qayd etildi.

1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti **5,5** promilleni tashkil qilib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **2,4** promillega kamaydi (2019- yilning mos davrida **7,9** promille bo‘lgan).



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Nikohdan ajralishlar FHDYO organlarida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **227** ta nikohdan ajralishlar qayd etildi va 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti **0,7** promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan **0,3** ga kamaydi. 2019- yilning mos davrida **1,0** promille bo‘lgan.



**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
statistika boshqarmasining
Demografiya va mehnat statistikasi
bo‘limi**
Tel: (61) 224-92-17 (61) 222-76-57